

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Zayniddinova Sevinch Jaloliddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tasviriy san'at mutaxassisligi I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Unda pedagogik jarayonda badiiy tasavvur, emotsional idrok, estetik tafakkur va mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik hamda metodik mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida interfaol, kreativ va muammoli ta'lim metodlarini qo'llash orqali ijodiy tafakkurni faollashtirish imkoniyatlari chuqur tahlil etiladi. Maqolada san'at ta'limining shaxs rivojiga ko'rsatadigan estetik, intellektual va axloqiy ta'siri ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ijodiy tafakkur, estetik tarbiya, pedagogik asos, badiiy idrok, kreativ metod, vizual fikrlash, mustaqil faoliyat, o'quv motivatsiyasi.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS DURING ART LESSONS

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing creative thinking in students during the process of art education. It highlights the psychological and methodological mechanisms for forming artistic imagination, emotional perception, aesthetic thinking, and independent thinking within the pedagogical process. Additionally, the article deeply examines the opportunities to activate creative thinking through the use of interactive, creative, and problem-based teaching methods in art lessons. The article scientifically substantiates the aesthetic, intellectual, and moral impact of art education on personal development.

Keywords: fine arts, creative thinking, aesthetic education, pedagogical foundation, artistic perception, creative method, visual thinking, independent activity, student motivation.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития творческого мышления у учащихся в процессе обучения изобразительному

искусству. Освещаются психологические и методические механизмы формирования художественного воображения, эмоционального восприятия, эстетического мышления и самостоятельного мышления в педагогическом процессе. Кроме того, проводится глубокий анализ возможностей активизации творческого мышления через использование на уроках изобразительного искусства интерактивных, креативных и проблемных методов обучения. Научно обоснуется эстетическое, интеллектуальное и нравственное влияние искусства на развитие личности.

Ключевые слова: *изобразительное искусство, творческое мышление, эстетическое воспитание, педагогическая основа, художественное восприятие, креативный метод, визуальное мышление, самостоятельная деятельность, мотивация учащихся.*

KIRISH

Ijodiy tafakkur inson tafakkurining eng murakkab shakli bo'lib, unda tasavvur, sezgi, fikr, idrok va estetik his-tuyg'ular uyg'un holda namoyon bo'ladi. Tasviriy san'at darslari esa ushbu tafakkurni rivojlantirish uchun tabiiy va samarali muhit yaratadi. Chunki san'at – bu o'quvchi ongida real hayotni estetik qayta yaratish, hissiy va mantiqiy fikrni uyg'unlashtirish jarayonidir. Pedagogik jarayonda ijodiy tafakkurni shakllantirishning asosiy maqsadi o'quvchining faqat tasviriy ko'nikmalarini emas, balki uning badiiy idrokini, estetik qarashlarini va emotsional sezgiriligini rivojlantirishdan iboratdir. Tasviriy san'at darslari o'quvchiga voqelikni badiiy tahlil qilish, rang, shakl, hajm, fazo va kompozitsiya orqali o'z fikrini ifodalash imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchining shaxsiy tajribasiga tayanib, ularni izlanishga, yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda eng muhim pedagogik tamoyil erkinlik va motivatsiya tamoyilidir. O'quvchi san'atni o'rganishda o'z hissiy kechinmalarini, qarashlarini, hayotiy tajribasini tasvir orqali ifoda etish imkoniga ega bo'lsa, unda ijodiy fikrlash tabiiy ravishda rivojlanadi. Tasviriy san'at talaba yoshlarni borliqni chuqur anglashga, kishilarning hissiyot dunyosini o'rganishga, go'zallikni his qilishga, ma'naviy dunyoqarashini shakllanishiga, ijodiy tasavvurlarini kengaytirishga, ularning estetik tarbiyasini rivojlantirishga yaqindan yordam beruvchi fan hisoblanadi. Ijodiy tasavvur, badiiy tarbiya, ma'naviy zavq tasviriy san'atda mujassamdir. Tasviriy sanat talaba yoshlarda nafaqat quyida keltirilgan sifatlarni shakllantiradi shu bilan birgalikda u estetik tarbiyaning ham bir ko'rinishi demakdir.

Respublikamiz kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining roli beqiyosdir. Mamlakatimizda ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham

o‘z o‘rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo‘lgani kabi tasviriy san’atda ham katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi so‘zsiz, tasviriy san’atning ifoda vositalari haqida chuqur ma’lumotga ega bo‘lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo‘llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘zi qalam va bo‘yoqlar bilan rangda ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o‘quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish kishilarga estetik zavq bag‘ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi.

Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati to‘g‘risida so‘z borganda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “...bizning eng katta boyligimiz- bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va ko‘paytirishda hurmatli ziyolilarimiz – ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrlil va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san’at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Ana shu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni biz o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor.” deb aytganlari bejiz emas.¹²¹

METADALOGIYA

San’at darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish o‘qituvchining metodik yondashuviga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki ijodiy kashfiyotchi sifatida ko‘rishi lozim. Buning uchun dars jarayonida muammoli vaziyatlar, vizual tahlil, badiiy tajriba va individual yondashuv metodlari qo‘llanilishi zarur. Masalan, tasviriy mashg‘ulotlarda o‘quvchiga tayyor shaklni nusxa ko‘chirish emas, balki u orqali yangi obraz yaratish topshirig‘i berilsa, tafakkur faoliyati faollashadi. Tasviriy san’at faqat ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi, erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g‘oyaviy o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san’at insonning ruhiy qiyofasini, uning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba’zan mavjud bo‘lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo‘lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi.

1. SH.M.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz-T.: O‘zbekiston, 2016. B.13

Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muhim rol o'ynaydi.¹²²

Ijodiy tafakkur jarayonida o'quvchi nafaqat estetik idrokni, balki metaforik fikrlash, tasavvur, tahlil va sintez qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tasviriy san'atda rang, shakl, kompozitsiya, chiziq va ritm singari elementlar orqali o'quvchi o'zining ichki dunyosini ifoda etadi. Shu bois, o'qituvchi dars jarayonida ranglarning psixologik ta'sirini, shakllarning ma'nosini, badiiy kompozitsiyaning mazmun bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilib tushuntirishi kerak. Pedagogik nuqtai nazardan, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta'lim usuli eng samarali vositalardan biridir. Bu usulda o'quvchiga tayyor javob emas, balki tahlil, izlanish va kashf etish imkonini beruvchi topshiriqlar beriladi. Masalan, o'quvchilarga "ranglar orqali his-tuyg'uni ifodalash", "kompozitsiyada muvozanat yaratish" kabi erkin ijodiy vazifalar berish orqali ularning ichki fikrlash faoliyati faollashadi. Bundan tashqari, interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish) tasviriy san'at darslarida ijodiy tafakkurni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar o'quvchini o'ylashga, tahlil qilishga, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Shu jarayonda o'qituvchi o'quvchining individual qobiliyatini, estetik didini va badiiy sezgirligini nazorat qiladi hamda yo'naltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tasviriy san'at darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, emotsional muhit va estetik motivatsiyaga ham bog'liq. O'qituvchi sinfda ijodiy erkinlik, rag'bat va ijobiy hissiy muhit yaratganda, o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'liq ochadi. Bunda o'qituvchining shaxsiy ijodkorligi, nutq madaniyati, san'atga bo'lgan muhabbati o'quvchiga o'tadi va ularni ilhomlantiradi. Ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonida integrativ yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Tasviriy san'atni adabiyot, musiqa, tarix va texnologiya fanlari bilan bog'lash o'quvchida keng dunyoqarash, hissiy tafakkur va badiiy tasavvur uyg'otadi. Bunday yondashuv san'atni faqat texnik ko'nikmalar majmuasi sifatida emas, balki insonning ma'naviy kamolotini shakllantiruvchi kuch sifatida anglashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni ijodiy tafakkurga yo'naltirish bu pedagogik faoliyatning ma'naviy, estetik va intellektual birlikdagi eng yuksak ko'rinishidir. San'at orqali tarbiyalangan shaxs nafaqat go'zallikni ko'radi, balki uni yaratishga intiladi,

¹²² https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san%CA%BCat

har bir narsa va hodisada estetik mohiyatni izlaydi. Bu esa pedagogik jarayonning asosiy maqsadi ijodiy, mustaqil, estetik fikrlovchi shaxsni shakllantirishdir.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish o'qituvchidan nafaqat metodik bilim, balki noan'anaviy fikrlashni boshqarish qobiliyatini ham talab qiladi. Har bir o'quvchi o'zicha idrok qiladi, turlicha his qiladi va o'z obrazini yaratadi. Shu sababli ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun pedagog o'quvchini tayyor shaklga emas, balki o'z ifodasini topishga undashi lozim. O'quvchining har bir ishi uning ichki dunyosini, hissiyatini va dunyoqarashini aks ettiradi shuning uchun baholashda "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" tushunchasiga emas, balki ijodiy yondashuvning mohiyatiga e'tibor qaratish kerak. Tasviriy san'at darsida ijodiy tafakkur o'quvchi tafakkurining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Masalan, oddiy mavzuda "Bahor", "Bolalik xotiralari" yoki "Tabiat manzarasi" ishlash jarayonida o'quvchi rang, shakl va joylashuv orqali o'z tuyg'usini ifoda etadi. O'qituvchi bu jarayonda yo'l ko'rsatuvchi emas, balki yo'l ochuvchi bo'lishi kerak. U har bir o'quvchining ichki ijodiy imkoniyatini ko'rishi, uni to'g'ri yo'naltirishi zarur. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda motivatsiya muhim o'rin tutadi. O'quvchi o'z ishi qadrlanayotganini sezsa, unda ishtiyoq, mas'uliyat va qiziqish ortadi. Shu sababli o'qituvchi darsda iliq muhit yaratishi, o'quvchilar ishini maqto'v, tahlil va o'zaro baholash orqali qo'llab-quvvatlashi lozim. Bu usul o'quvchiga o'zini ijodkor sifatida his qilish imkonini beradi.

NATIJALAR

Tasviriy san'at darsida ijodiy tafakkur o'quvchi tafakkurining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Masalan, oddiy mavzuda "Bahor", "Bolalik xotiralari" yoki "Tabiat manzarasi" ishlash jarayonida o'quvchi rang, shakl va joylashuv orqali o'z tuyg'usini ifoda etadi. O'qituvchi bu jarayonda yo'l ko'rsatuvchi emas, balki yo'l ochuvchi bo'lishi kerak. U har bir o'quvchining ichki ijodiy imkoniyatini ko'rishi, uni to'g'ri yo'naltirishi zarur. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda motivatsiya muhim o'rin tutadi. O'quvchi o'z ishi qadrlanayotganini sezsa, unda ishtiyoq, mas'uliyat va qiziqish ortadi. Shu sababli o'qituvchi darsda iliq muhit yaratishi, o'quvchilar ishini maqto'v, tahlil va o'zaro baholash orqali qo'llab-quvvatlashi lozim. Bu usul o'quvchiga o'zini ijodkor sifatida his qilish imkonini beradi. Tasviriy san'at bu nafaqat rasm chizish yoki bo'yoq bilan ishlash jarayoni, balki o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, mustaqil qaror qabul qilishni va estetik didni shakllantiradigan muhim ta'lim yo'nalishidir. Ijodiy tafakkur deganda insonning yangi, noodatiy yechimlar topish, o'z fikrini ifodali shaklda ifoda etish qobiliyati tushuniladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsni ijodiy rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarni tasavvur, his-tuyg'u va fikrlash faoliyatini uyg'otadigan eng samarali vositadir. Rang, shakl, chiziq va kompozitsiya orqali o'quvchi o'z dunyoqarashini, ruhiy holatini hamda o'ziga xos fikrini ifodalaydi. Shu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga erkin ijod qilish uchun qulay sharoit yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash va har bir ishning ichki g'oyasini topishga yo'naltirishdir. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o'quvchilarni bir xil natijaga emas, balki turli yo'llar bilan ifodalay olishga o'rgatish muhim. Masalan, bir xil mavzuda har xil uslubda ishlash, turli materiallardan foydalanish yoki bir mavzuga turli rakurslardan yondashish ularda fikr erkinligini oshiradi. O'qituvchi dars jarayonida "to'g'ri javob bitta" degan tushunchadan qochishi, aksincha, o'quvchilarni o'ziga xos fikr topishga rag'batlantirishi kerak. Ijodiy fikrlashni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasining ahamiyati katta. O'quvchilar o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan ishtiyoqi, estetik didi va yangilikka ochiqqligidan ilhomlanadi. Shuning uchun tasviriy san'at o'qituvchisi doimiy ravishda o'z bilimni yangilab borishi, zamonaviy san'at yo'nalishlari, raqamli texnologiyalar va yangi o'qitish usullari bilan tanishib borishi zarur. Bundan tashqari, o'quvchilarning ishini baholashda faqat texnik aniqlikka emas, balki g'oyaning o'ziga xosligiga, fikrning yangiligiga va ijodiy izlanish darajasiga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki ijodiy tafakkur jarayoni natijadan ko'ra jarayonning o'zida shakllanadi.

O'qituvchining o'zi ham ijodiy bo'lishi zarur. U darslarda yangi usullar, o'yin elementlari, texnologiyalar va raqamli san'at vositalarini qo'llasa, o'quvchilar uchun dars yanada qiziqarli bo'ladi. Masalan, raqamli kollaj yaratish, 3D shakllarni chizish yoki dizayn topshiriqlarini bajarish orqali o'quvchilar zamonaviy ijodiy ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning tafakkurini yangicha yo'nalishda shakllantiradi. Eng muhimi, ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni davomiy bo'lishi kerak. Fikr, tajriba, baholash va tahlil bu jarayonning to'rt asosiy bosqichidir. O'quvchi o'z ishini yaratadi, tahlil qiladi, baholaydi va undan saboq oladi. Har safar yangi ish bilan shug'ullanganda, uning tafakkuri bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi.

XULOSA

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish shunchaki texnik mahoratni oshirish emas, balki insonning ichki dunyosini, badiiy idrokini, estetik sezgisini va tafakkur madaniyatini shakllantirishdir. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchining pedagogik mahoratiga, darsning psixologik muhitiga, o'quvchiga berilayotgan erkinlik va ishonch darajasiga bog'liq. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda san'at ta'limi shaxsning ma'naviy barkamollikka erishish yo'lida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz-T.: O‘zbekiston, 2016
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san%CA%BCat
3. O‘.Nurtoev “Tasviriy san‘at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish” o‘quv qo‘llanma Toshkent TDPU 2021
4. O‘.Nurtoev, B.Boymetov “Tasviriy san‘at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish” Toshkent 2007
5. Abdullayev.N.O‘. «San‘at tarixi». 2/1. T.: San‘at, 2001
6. Abdurahmonov G.M. «Rangtasvir va kompozitsiya». T., 1995